

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘simliklar karantini va himoyasi  
ilmiy-tadqiqot instituti direktor  
o‘rinbosari, Jamoatchilik  
kengashi raisi**



**A.R.Anorbaev**

**17-июнь 2025-йil**

**O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi xuzuridagi**

**Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining 1-sonli**

### **BAYONNOMASI**

**Qibray tumani**

|                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ilmiy kengash raisi: | A.R.Anorbaev - O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti direktor o‘rinbosari.                                                                                                                                                                                                                       |
| Yig‘ilish kotibi     | A.Kadirov - O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Yig‘ma axborot-tahlil va ijro intizomi bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari.                                                                                                                                                                                         |
| Qatnashdilar:        | Kengash raisi o‘rinbosari O.Sulaymonov, kengash azolari: X.Kimsanbaev, Q.Bobobekov, A.Ma‘rupov, N.Tufliev, U.Raximov, A.Xudoyqulov, B.Boltaev, S.Sadinova, D.Zufarova, J.Salixov, SH.Xudoyberdiev, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti xodimlar shuningdek, Kasaba uyushma qo‘mitasi a‘zolari. |
| Taklif qilinganlar:  | Agentlik boshqarmalarining tegishli xodimlari                                                                                                                                                                                                                                                                         |

### **Kun tartibi:**

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini oshirish maqsadida “Biz korrupsiyaga qarshimiz” shiori ostida targ‘ibot ishlarini olib borish..

**Eshitildi:** Kun tartibidagi masala yuzasidan kengash raisi A.Anorbaev - olib borib kun tartibidagi masala yuzasidan tanishtirdi.

**So‘zga chiqdi:** N.Tufliev so‘zga chiqib quyidagilarni ya‘ni, Korrupsiya davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Dunyoning rivojlanishi hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashda birlashmog‘imiz lozim!

Korrupsiya – bu har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini izdan chiqaruvchi eng xavfli jinoyatdir.



Hech qaysi mamlakat, biron-bir hudud yoki jamiyat yo'qki u korrupsiyaga qarshi immunitetga ega bo'lsa.

Birlashgan millatlar tashkilotida barcha davlatlar hamkorlikda, ta'lim, tibbiyot, sud-huquq, demokratiyaning rivojlanishiga korrupsiyaning kirib borishiga asosiy e'tiborini qaratuvchi tadbir ishlab chiqilgan. Xalqaro tadbir o'zining e'tiborini korrupsiyaning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta to'siq bo'lishga qaratadi.

Shu munosabat bilan 2003 yil 09 dekabr kuni Meksikada BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolangan va ushbu kun Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida e'lon qilingan. Shu tariqa 2004 yil 09 dekabr kunidan boshlab Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanmoqda.

Korrupsiya jamiyat, davlat hokimiyati organlarining manfaatlariga qarshi qaratilgan noqonuniy faoliyatning maxsus ko'rinishi ekanligini tushunish muhimdir; u mansabdor shaxs va fuqaro(mijoz)ning o'zaro kelishuvga erishib til biriktirishidir. Undan olinadigan moddiy va nomoddiy imtiyozlar noqonuniy bo'lib, ularning atrofida ahloqsiz ijtimoiy muhit yuzaga keladi.

Korrupsiyaning shakllari turlicha, ammo korrupsiya oqibatlari har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, mamlakat aholisiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatda korrupsiyaga qarshi huquqiy ongni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, ya'ni korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi insonning o'zida ichki rad etishni shakllantirmoq kerak.

Bugungi kunda har bir fuqaroda: "poraxo'r mansabdor shaxs bo'lish nafaqat xavfli balki sharmandali hamdir, ammo halol yashash foydali va obro'lidir" degan ichki ishonchni shakllantirish korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

**So'zga chiqdi:** Yig'ilish davomida O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Q.Bababekov so'zga chiqib, Mazkur Korrupsiya shakllari turlicha, ammo korrupsiya oqibatlari har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, mamlakat aholisiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatda korrupsiyaga qarshi huquqiy ongni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, ya'ni korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi insonning o'zida ichki rad etishni shakllantirmoq kerak degan shioriga amal qilgan ishlarni tashkilashtirish taklifini bildirdi.

Shuningdek yig'ilish davomida O.Sulaymonov barcha qatnashchilar yuqoridagi bildirilgan fikrlarga e'tirozlari yo'qligini. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatda korrupsiyaga qarshi huquqiy ongni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish



lozim bo'lib va barcha birdek tasdiqlangan reja-jadval asosida belgilangan ko'rsatgichlar bo'yicha tizimdagi tashkilot xodimlari keng targ'ib qilish kerakligini ta'kidladi.

Yig'ilish qatnashchilari tomonidan yuqoridagi bildirilgan takliflar o'rinli ekanligi aytili va barcha bir ovozdan bildirilgan takliflarni ma'qulladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur yig'ilish,

### **QAROR QILADI:**

1. O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasliklari, shuningdek, ularga ayon bo'lgan shunday holatlar to'g'risida o'rnatilgan tartibda xabar qilishlari hamda o'z vazifalarini lozim darajada, amaldagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilgan holda bajarishlarini ta'minlansin.

2. Ushbu yig'ilish bayonnomasi qarori Agentlik saytlariga joylashtarilish kotibga yuklatilsin.

**Yig'ilish kotibi**



**A.Kadirov**